

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2
MAXSUS SON

2026

MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINING
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 118 sahifa,
mart-aprel, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI	8
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQ TAHLILI.....	12
Go'zal Samadova Solik qizi, Husan Normurodov	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	17
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich, Aytmuratova Ulbike	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SEKTORINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	21
Abduxalilov S.A., Normurodov X.E.	
ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	27
Абдумажидов Шохжахон Шухратович, Захидов Шухрат Шокирович, Насиров Дилшод Фархадович	
СТЕЙБЛКОИНЫ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО ПОСРЕДНИЧЕСТВА	31
Бахтиярова А.Б., Алиева С.С.	
TASHKILOT AXBOROT TIZIMLARINI KVANT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHDA POST-KVANT KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARNI QO'LLASH.....	38
G'ofurova Muxlisa G'ulom qizi, Tursunova Sadoqat Abdusalom qizi	
CHORVACHILIKDA QIYMAT ZANJIRI: BARQARORLIK VA DAROMAD	44
Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahmatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI	50
Sarsengalieva Albina Askar Qizi, Sarsenbaev Baxitjan Abdulgazievich	
STATISTIK TAHLILDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH	56
Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi, Daminova Barno Esanovna	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTINING YASHIL RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	62
Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi, Normurodov X.E.	
O'ZBEKISTON TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	66
Abdurazakova Farangis Dilshod qizi, Normurodov X.E.	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ ОРГАНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	71
Насиров Дилшод Фархадович, Абилова Мухлиса, Насимова Рухангиз	
THE ROLE OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN	75
Amanova Durdona Zoir qizi, Shodiboyeva Dilzoda Farhodjon qizi	
INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	80
Yarboyeva Farida Ulug'bekovna, Yoqubova Zilola Tura qizi	
QURILISH YUKLARINI TASHISH JARAYONIDA LOGISTIKA MASALALARI.....	86
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li, Maxmudov Abrorxon Axmadxonovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	90
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI MIKROMOLIYALASHTIRISH ORQALI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI	95
Tojiyev Javlonbek Rustamovich, Yuldashev Sobirjon Xaknazarovich, Abdullayev Sunnat Nurullayevich	



ОПРЕДЕЛЕНИЕ И АНАЛИЗ ВЫРАЖЕНИЙ ЛИЦА НА ЦИФРОВЫХ ИЗОБРАЖЕНИЯХ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	101
Гофуржонов М.Р., Абдуллаев А.А.	
CHALLENGES AND PROSPECTS OF THE AUTOMOTIVE INDUSTRY OF UZBEKISTAN UNDER WTO ACCESSION.....	106
Olha N. Hapievova, Sukhrob Bobojonov	
MARKAZIY BANK INSTRUMENTLARI ORQALI INFLYATSIYANI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI	112
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi, Ma'murjonova Feruza Muzaffar qizi	



MARKAZIY BANK INSTRUMENTLARI ORQALI INFLYATSIYANI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi

O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti Moliya va kredit kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: zilola_gaybullaeva@bk.ru
ORCID: 0009-0000-3137-8127

Ma'murjonova Feruza Muzaffar qizi

O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich talabasi
E-mail: muzaffarovna0811@gmail.com
ORCID: 0009-0004-3436-159X

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2021–2025-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qo'llanilgan monetar instrumentlarning inflyatsiyani tartibga solishdagi o'rni tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida asosiy stavka, bazaviy va umumiy inflyatsiya hamda banklararo pul stavkalari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: monetar siyosat, inflyatsiya, umumiy inflyatsiya, bazaviy inflyatsiya, inflyatsion targetlash, likvidlik, asosiy stavka, UZONIA.

Abstract: This article examines the role of monetary policy instruments implemented by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan in regulating inflation during the period 2021–2025. The study analyzes the relationship between the policy rate, core and headline inflation, and interbank interest rates.

Keywords: monetary policy, inflation, headline inflation, core inflation, inflation targeting, liquidity, policy rate, UZONIA.

Аннотация: В данной статье исследуется роль монетарных инструментов, применяемых Центральным банком Республики Узбекистан в период 2021–2025 годов, в регулировании инфляции. В ходе исследования проанализирована взаимосвязь между ключевой ставкой, базовой и общей инфляцией, а также межбанковскими процентными ставками.

Ключевые слова: монетарная политика, инфляция, общая инфляция, базовая инфляция, инфляционное таргетирование, ликвидность, ключевая ставка, UZONIA.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida inflyatsiya va uni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Inflyatsiya deganda pul muomalasi qonunlarining buzilishi bilan bog'liq holda qog'oz pullarning qadrsizlanishi tushuniladi [1]. Inflyatsiya nafaqat aholining turmush darajasiga ta'sir etadi, balki iqtisodiy o'sish sur'atlariga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Bu borada O'zbekistonda ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlarning huquqiy asosi sifatida mamlakatimiz Prezidentining 2019-yil 18-noyabrda "Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5877-son Farmonini keltirish mumkin. Farmonga ko'ra, narxlarning keskin oshishi hamda spiral xarakterdagi inflyatsiyaning oldini olish, pul bozorini shakllantirish, imtiyozli kreditlash kabi yo'nalishlar ustuvor vazifa etib belgilangan [2].

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tarkibiy islohotlar sharoitida narxlar barqarorligini ta'minlash makroiqtisodiy siyosatning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday holatda Markaziy bankning roli alohida ahamiyatga ega. Markaziy bankning monetar siyosatdagi asosiy vositalari sifatida asosiy stavka, ya'ni Markaziy bankning tijorat banklariga qarz beradigan yoki ulardan depozit qabul qiladigan foiz stavkasi hamda majburiy rezervlash mexanizmini ko'rsatish mumkin.



1989-yilga kelib Yangi Zelandiyada inflyatsion targetlash rejimi amaliyotda qo'llanila boshlandi. Hozirgi kunga kelib dunyo bo'ylab 30 dan ortiq rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar pul-kredit siyosatining inflyatsion targetlash rejimidan foydalanib kelmoqda [2].

Ushbu maqolada Markaziy bankning asosiy stavka hamda majburiy rezervlash instrumentlari orqali narxlar barqarorligini ta'minlash samaradorligi tahlil qilinadi hamda mavjud muammolar yuzasidan amaliy takliflar beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inflyatsiyani tartibga solish har doim iqtisodiyotdagi muhim vazifa hisoblangan. Shu sababli ko'plab chet el hamda mahalliy olimlar tomonidan bu borada juda ko'p ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Milton Friedman "Inflyatsiya har doim va hamma yerda monetar hodisadir" degan g'oyani ilgari surib, narxlar barqarorligini ta'minlashda pul massasini nazorat qilish birlamchi ekanligini asoslab bergan [3].

A.S. Nurjigitovanning ta'kidlashicha, "Markaziy banklarning asosiy funksiyalaridan biri inflyatsiya darajasini nazorat qilish bo'lib, bu jarayon iqtisodiy barqarorlik va pul-kredit siyosatining muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Inflyatsiya aholining yashash darajasi va xarid qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, tadbirkorlar uchun esa moliyaviy rejalar tuzishda muhim omil sanaladi. Shu boisdan, inflyatsiya darajasini boshqarish har bir mamlakat iqtisodiyotining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi" [4].

Bundan tashqari, O. Majidova Markaziy bank inflyatsiyani jilovlash uchun asosan pul-kredit siyosati vositalaridan foydalanishini ta'kidlaydi. Xususan, foiz stavkalarini belgilash, ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish, majburiy rezerv talablarini tartibga solish va bank tizimining likvidligini boshqarish kabi mexanizmlar qo'llaniladi. Ushbu vositalar inflyatsiyani nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi, biroq ularning samaradorligi iqtisodiy muhitga bog'liq. Masalan, inflyatsion targetlash tizimi joriy etilgan bo'lsa-da, tashqi iqtisodiy omillar, jumladan, import narxlarining o'zgarishi, global moliyaviy inqirozlar va valyuta kursining beqarorligi inflyatsiyaga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlanadi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada mavzuni yoritish uchun mantiqiy mushohada yuritishga tayangan holda, shuningdek, tadqiqot davomida tizimli, miqdoriy va segmentar tahlil hamda natijalarni vizual aks ettirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi paytlarda Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida inflyatsiyani tartibga solish usullarini joriy etish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Inflyatsiyani tartibga solishda Markaziy bankning asosiy stavkani o'zgartirish siyosati alohida ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda Markaziy bankning asosiy stavkani o'zgartirishi va uning inflyatsiyaga ta'siri ko'rib chiqiladi.

1-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar(2021-2025)[5]

Ko'rsatkich/Yillar	2021	2022	2023	2024	2025
Asosiy stavka(%)	14	15	14	13.5	14
Yillik inflatsiya	10	12.3	8.8	10	7.3
Baza inflatsiya	10.7	13.8	8.5	7	5.7
Banklararo foiz stavkasi(UZONIA)(%)	13	14.2	13.5	14	13.9

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan siyosat inflyatsiya darajasiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatgan. Umuman olganda, 2021-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda inflyatsiya darajasi, oradagi tebranishlarni hisobga olmaganda, 2,7 % ga tushirilgan, ya'ni 2021-yilda yillik inflyatsiya 10 % bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 7,3 % ni tashkil etgan.

Asosiy stavkalarning o'zgarishi yillik inflyatsiya darajasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. 2021-yilda asosiy stavka va yillik inflyatsiya mos ravishda 14 % va 10 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda inflyatsiyaning keskin o'zgarishi asosiy stavkaning oshishiga ham sabab bo'ldi. Ya'ni, 2022-yilga kelib, yillik inflyatsiya darajasi 12,3 %, asosiy stavka esa 15 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, inflyatsiya darajasining oshishi bazaviy inflyatsiya hamda banklararo foiz stavkalarining ham o'zgarishiga olib keladi. Masalan, 2022-yilda bazaviy inflyatsiya 14,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda esa 8,5 % gacha tushgan. Shu bilan birga, banklararo foiz stavkasi ham 14,2 % dan 13,5 % gacha pasayganini kuzatish mumkin.

Bazaviy inflyatsiya deganda umumiy inflyatsiyadan narxlar juda tez o'zgaruvchan bo'lgan va Markaziy bankning monetar siyosatiga bevosita bo'ysunmaydigan omillar chiqarib tashlab hisoblanadigan ko'rsatkich tushuniladi. Masalan, mavsumiy va qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlar hamda ma'muriy tartibga solinadigan narxlar (elektr energiyasi, tabiiy gaz va boshqalar) ushbu ko'rsatkichga kiritilmaydi.

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, yillik umumiy inflyatsiya va bazaviy inflyatsiya o'rtasida deyarli bog'liqlik mavjud emas. 2024-yilda umumiy yillik inflyatsiya 10 % gacha ko'tarilgan bo'lsa-da, bazaviy inflyatsiya 7 % gacha pasayishda davom etgan.

Banklararo foiz stavkalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Markaziy bank o'z operatsion rejalarini muvaffaqiyatli amalga oshirayotganini ko'rish mumkin. 2023–2025-yillarda UZONIA stavkasi asosiy stavkaga juda yaqin shakllangan, ya'ni asosiy stavka 14 %, UZONIA ko'rsatkichi esa 13,9 % ni tashkil etgan. Bu Markaziy bank o'z instrumentlari orqali likvidlik va foiz stavkalari ustidan nazoratni samarali amalga oshirayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Markaziy bank likvidlikni nazorat qilish orqali pul massasining o'sishini jilovlashga erishmoqda. Bu esa o'z navbatida bazaviy inflyatsiyaning pasayishida namoyon bo'lmoqda. 2021–2025-yillarda umumiy inflyatsiya va bazaviy inflyatsiya o'rtasidagi tafovutning kengayishi iqtisodiyotda narxlar o'sishining asosan ma'muriy tariflar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021–2025-yillardagi monetar siyosati hamda uning inflyatsiyani tartibga solishdagi samaradorligi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 2022-yildagi "inflyatsion shok" davrida asosiy stavkaning 14–15 % ga ko'tarilishi mamlakat iqtisodiyotidagi ortiqcha likvidlikni muvaffaqiyatli nazorat qilish imkonini berdi. Bu esa keyingi yillarda bazaviy inflyatsiyaning pasayishiga sabab bo'ldi.

Banklararo pul bozori stavkalarining Markaziy bank tomonidan tartibga solinishi hamda ularning asosiy stavkaga yaqin darajada shakllanishi ushbu sohaning samarali ishlayotganidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalaridan olingan ma'lumotlarga asoslanib, bir qator takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, pul-kredit va fiskal siyosat muvofiqligini kuchaytirish zarur. Inflyatsiyani tartibga solish nafaqat Markaziy bank faoliyati bilan, balki umumiy davlat siyosati bilan ham chambarchas bog'liq jarayon hisoblanadi. Shu bois davlat budjeti taqchilligini kamaytirish va ijtimoiy xarajatlarning pul massasiga ta'sirini muvofiqlashtirish orqali monetar va fiskal siyosat uyg'unligini ta'minlash muhimdir.

Ikkinchidan, chet el valyutasidagi depozitlar uchun majburiy rezerv me'yorini oshirish orqali tijorat banklarini milliy valyutada jamg'armalar jalb qilishga rag'batlantirishni davom ettirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-noyabrdagi "Inflyatsion targetlash rejimiga o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida" PF-5877-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-4600824?ON-DATE=07.07.2023%2000>
2. Shodmonov Sh. *Iqtisodiyot nazariyasi*. – Toshkent, 2021. – 625 b.
3. A.S. Nurjigitova. *Modern Inflation* // Molodoy uchenyj. – 2016. – pp. 481–482.
4. Milton Friedman. *The Role of Monetary Policy* // The American Economic Review. – 1968.
5. Shamansurova Z., O'rinboyev U. *Milliy valyuta barqarorligiga ta'sir qiluvchi omillar va inflyatsion targetlashning pul barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati* // Nashrlar. – 2024. – Vol. 3, iss. M. – pp. 162–166. – DOI: 10.60078/2024-vol3-issM-pp162-166.
6. Milton Friedman. *The Role of Monetary Policy* // The American Economic Review. – 1968.
7. Panjiyeva O. H. Q. *Inflyatsiya darajasini boshqarishda Markaziy bankning amalga oshirayotgan mexanizmlari va jahon tajribasi* // EJMTCS. – 2025. – No. 3. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inflyatsiya-darajasini-boshqarish-da-markaziy-bankning-amalga-oshirayotgan-mexanizmlari-va-jahon-tajribasi> (murojaat sanasi: 18.04.2025).
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Statistik byulletenlar (2021–2025-yillar)*. – URL: <https://www.cbu.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100